

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHDA O‘YIN FAOLIYATINING ROLI

Qipchaqova Sevinchxon

O‘zbekiton-Finlandiya pedagogika instituti
Magistratura bosqich talabasi

B.A. Xodjayorova

Ilmiy rahbar PhD

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tamonlama etuk shaxs qilib tarbiyalashda aqliy tarbiyaning o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Muallif bolalarning aqliy rivojlanishida bilish jarayonlarining muhim ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan. Aqliy tarbiya berishda o‘yin faoliyatlaridan samarali foydalanish haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aql, sezgi, idrok, tafakkur, xayolni bilish jarayonlari o‘quvchi, xotira mashqi, mutaxassis, aqliy rivojlanish.

THE ROLE OF GAME ACTIVITY IN MENTAL EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE.

ABSTRACT

The article examines the role of mental education in the upbringing of preschoolers as full-fledged adults. The author emphasizes the importance of cognitive processes in the mental development of children. Thoughts on the effective use of game activities in mental education are covered

Keywords: mind, intuition, perception, contemplation, imagination, cognitive processes, development, memory, development of the intellect

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о роли интеллектуального воспитания в воспитании дошкольников зрелыми личностями. Автор показал значение познавательных процессов в психическом развитии детей. Выделены мысли об эффективном использовании игровой деятельности в умственном воспитании.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya berish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish maqsadida davlatimiz tomonidan samarali islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida turli qaror va farmonlar imzolandi va amalyotga tadbiiq etildi. Ulardan 2020-yil 22-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi 802-sonli qarori hamda Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilm yo'li" variantiv dasturi, yangi tahrirdagi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi shular jumlasidan.

Ilk qadam davlat o'quv dasturining IV bob. O'qitishga yondashuvlar deb nomlanadi. O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari (O'zR IMYoBRDT – 2018 y) ning, "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturining (2018 y), O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasining joriy qilinishi, boshlang'ich maktab ta'limi Davlat ta'lim standartlarining qabul qilinishi o'z ortidan nafaqat ancha vaqtlardan beri mavjud bo'lib kelayotgan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi izchillikni ta'minlash bo'yicha ishlar tizimining qayta ko'rib chiqilishini keltirib chiqardi, balki pedagoglarga maktabgacha va maktab ta'lim tizimini yangichasiga qayta tuzib chiqishga ham imkon berdi. Bu bobning 6-qismi esa o'yin faoliyatining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tutgan o'rni haqida batafsil yoritildi.

IV bob.6. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin faoliyatning yetakchi turi sifatida. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra (K. Groos, V Shtern, F. Bontendayk, J. Piaje, E.Erikson, L. Vigotskiy, D.B. El'konin i dr.), o'yin kichik bolalar hayotining muhim qismi bo'lib, o'yin bilan rivojlanish uzviy bog'liq jarayonlardir. Ekspertlarning fikricha, «O'yin bolalarga bilim doirasi va harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni qurshab odamlar dunyosi va undagi o'zining o'rnini anglash uchun zarur» (Frost i Yakob, 1995g.). O'yin jarayonida bolalar hamkorlik qilishga o'rganadi, qoidalar bilan tanishadi va yangilarini ishlab chiqadi, o'ziga va boshqalarga baho berishi ko'nikmalarini rivojlanadi, shaxsiy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy muammolarni hal etadi. «Ilm yo'li» variativ dasturi kuzatish va izlanish, tajriba o'tkazish va loyihaviy faoliyat kabi muhim turlarining ahamiyatini inkor etmagan holda, faoliyatning yetakchi turi – o'yinga pedagoglarning diqqat-e'tiborini jalb etadi. Aynan o'yin jarayonida ma'lum darajada faoliyatning mazkur turlarining barchasida albatta ishtirok etadi. Maktabgacha ta'limdagi modernizasion o'zgarishlar tarbiyachilarga maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodlari va shakllarini tanlab olish erkinligini beradi. Zamonaviy o'qitishning asosiy natijasi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunga ko'ra bola uning rivojlanishiga va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga qanchalik yordam bera oladigan nimalarni o'zlashtirgani e'tiborga olinadi.

Pedagog tomonidan tanlab olingan o'qitish shakllari intellektual jarayonlarning shakllanishiga yordam berishi, masalalarni ijodiy hal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishi, mustaqillikni va ma'suliyatni o'rgatishi, bolalarni o'z xulq-atvorini boshqarishni mashq qildirishi lozimdir. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib sanaladi. U sog'lom va rivojlangan bola shaxsining shakllanishini ta'minlashi, tizimli o'qitishga tayyorlash bilan unda o'qish-o'rganishga intilishni uyg'otishi zarur deyiladi ushbu qismda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abu Raybon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mabmud Qosbg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avioniy va boshqalar, g'arb olimlaridan YAn Amos Komenskiy, K.D.Usbinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha aqliy tarbiyaha oid buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida sbakllanib borib barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatleri, yani ta'limiy maqsadlar bam aniqlanib bordi. Xitoyning Samarqanddagi eichisi Vey TSzining bisobotlarida: «Samarqand aholisi mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», - deb qayd qilingan. Zardushiytlik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da bam ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda « Tarbiya bayotning eng muhim tirgagi. tayanchi bo'lib bisoblanishi lozim. Har bir yoshni sbunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tariladi >> deyilgan. Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.


Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi YAn Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. SHu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bulgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi.

Mavzu metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim jarayonida ustivor modeli bu maktabgacha yoshdagi bolalarga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish hisoblanadi. MTT esa 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ilk ijtimoiy, rivojlanuvchi muhiti hisoblanadi. Tashkilotda bolalar tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim va tarbiya olishadi. Rivojlanib borayotgan bolaning dunyoqarashini to'g'ri shaklantirish, ta'lim sifatini yaxshilash, milliy qadryatlar ruhida vatanga muhabbat tuyg'usi bilan bolalarga ta'lim-tarbiy berish hozirgi kunda Maktabgacha va maktab tab ta'limi vazirligining asosiy vazifasidir.

MTT da bolalarga aqliy tarbiya berish keng qamrovli ishlarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida tarbiyachidan Aqliy tarbiyaga oid bilimlarni puhta o'zlashtirishni talab qiladi. Aql va aqliy tarbiya tushunchalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Aql - keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Aqliy tarbiya - bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish. U yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi. Bu ta'sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi. Ular aqliy faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi.

Bolaning aqliy tarbiyasini rivojlantirish uchun biz ta'lim va tarbiya jarayonida faoliyatlar davomida turli o'yinlardan foydalanamiz. Chunki o'yin bolalar hayotining yetakchi faoliyati hisoblanadi. O'yin orqali bolalarga ta'lim va tarbiya berish osonlashadi, o'yinlar bolani yangi bilim egallashga, olamni anglashga undaydi. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi O'yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan ma'qul. Bolalar MTTda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun, 10 dan ortiq faoliyatlar bilan maxsus tashkil etilgan 5 ta markazda shug'illanadilar. Bunda tarbiyachi o'quv tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda Davlat o'quv dasturidan foydalanadi. Dasturda belgilangan tartibda mavzular bilan bolalarni tanishtiradi, faoliyatlar samaradorligini oshirish uchun turli o'yin turlaridan foydalanadi.

O'yinlar asosan 2 turga bo'linadi:



Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.

Syujetli-rolli o'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin turlaridir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyushtira olish jihatari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida quriladi: o'yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Qurilish o'yinlari ham ijodiy o'yinlar sirasiga kiradi. Ularda bolalar atrof-muhitdagi buyumli dunyo haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar, mustaqil tarzda turli narsalar yasaydilar, bunyod etadilar. Qurilish-yasash o'yinlarida bir xil buyumlarning boshqalari bilan almashinishi yuz beradi. Kichik va o'rta guruh yoshidagi bolalarda

qurilish o'yinlari rolli o'yinlar bilan bog'lanib ketadi. Ko'rib turganimizdek ijodiy o'yinlar bolani fikrlashga atrofdagi ko'rgan bilgan narsalarini tasvirlashga, hamda xotirani yanada mustahkam bo'lishiga yordam beradi. Ijodiy o'yinlar bolalarning intellektuallik, kreativlik hislatlarini yuzaga chiqishiga yordam beradi.

Qoidali o'yinlar. Trabiyachi boshchiligida tashkil etiladigan, ma'lum qoidalarni o'z ichiga olafi. Bolalar qoidalarga bo'ysungan holda natijaga erishishga harkat qiladilar. Qoidali o'yinlar asosan ta'lim jarayonida didaktik maqsad asosida yo'lga qo'yiladi.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarning muhim elementi qoidalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o'yin mazmunini amalga oshirishni ta'minlaydi. Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi. Didaktik o'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir.

Harakatli o'yinlar. MTTda ertalabki qabul vaqtida jismoniy o'yinlar bilan birga harakatli o'yinlar o'ynaladi. Sayr vaqtida, faoliyatlar o'rtasida bolaga tetiklik ulashish maqsadida harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Harakatli o'yinlarni tarbiyachi ko'rsatib beradi, misol uchun: Ko'zgu o'yini. Bu o'yinda bolalar tarbiyachiga ko'zgu vazifasini bajaradilar, tarbiyachi harakatlarini aksini o'zlari namoyon etishlari kerak bo'ladi. Bunday o'yinlarga misollar ko'p. "Ayiq-ayiq", "O'rmonda", "Oq terakmi? Ko'k terak" v.hk.

Musiqiy o'yinlar. Ma'lumki, musiqaning insonning ma'naviy, axloqiy va estetik taraqqiyotiga kuchli ta'siri borligi ma'lum bo'ldi. Bolalar katta yoshlilarga qaraganda musiqani juda yaxshi qabul qilishadi, shuning uchun bolalarning musiqiy rivojlanishi ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ota-onalar o'z farzandlarini kelajakda musiqa maktabiga berishni xohlamasalar ham, musiqa o'z hayotida bo'lishi kerak. Bolalar uchun musiqiy o'yinlar, ertaklar va karikaturalar bolaning ongida unutilmas iz qoldiradi, tasavvur va tasavvurni rivojlantiradi.

Tahlil va natijalar. O'yinlar turlarini o'rganish jarayonida tarbiyachi bola yoshi, qiziqishlari va faoliyatning qaysi turida ekanligiga qarab o'yin turlaridan foydalanishi mumkin. Misol uchun MTTda o'tiladigan 17 hil mashg'ulot turlariga yondashib o'tsak. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarga Harakatli o'yinlardan «Kim birinchi», «koptok», «oq quyoncha o'tiribdi», «yetib ol» o'yinlari o'ynatilishi mumkin. Harakatli o'yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'tkaziladi. Drammalashtirilgan o'yinlarni xam bolalar sevib o'ynaydilar. Bu o'yinlar turli xil ertak va hikoyalar saxnaga qo'yiladi, rollarni esa bevosita bolalarni o'zlari ijro etadilar. Masalan: «Qizil shapkacha», «Zumrad va Qimmat», «Sholg'om» drammati o'yinlar bolalarni nutqi xayol va qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari orasida qurish-yasash o'yinlari hammaga ma'lum bir maqsadga qaratilgan

bo'ladi. O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda o'rganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bulib o'ynashni yoqtiradilar bu psixologik bolani umumiy tarqqiyotiga ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiyachilar jamoa o'yinlarga ko'proq jalb etishlari kerak. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birgalikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda o'yin maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya ishlari orasida eng markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkilda tashkil etishga bog'liqdir. Zero har bir bola kamolotida o'zini shaxs ekanligini anglashi va vatani uchun kerakli shaxs bo'lib tarbiyalanishi tarbiyachilar, tashkilot rahbarlari va vazirlik zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 802-sonli qarori. 22.12.2020-y.
2. Ilk qadam Davlat o'quv dasturi 2-nashr Maktabgacha ta'lim vazirligi 220222-yil 4-fevral 1-son bayonnomasi asosida.
3. Ilm yoli variativ dasturi Maktabgacha ta'lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 54-son buyurug'iga I-ilova.
4. Maktabgacha pedagogika F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M.A'zamova.